

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDiy MARKAZI**

**SUVONOVA KAMOLA RAYIMQUL QIZI
TEMURIYLAR DAVRIDA AMALIY SAN'AT**
(Uslubiy ko'rsatma)

SAMARQAND – 2020

K.R.Suvonova. Temuriylar davrida amaliy san'at. Uslubiy ko'rsarma. Samarqand – 2020. 20 b.

Taqrizchilar:

U.Utanov – SamVXTXQTMO hududiy markazi pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

R.Uralov - SamDU Chizmachilik kafedrası o'qituvchisi

Uslubiy ko'rsatmadan umumiy o'rta maktab o'qituvchilari, tasviriy san'at yo'nalish bo'yicha malaka oshirish kursi tinglovchilari foydalanishlari mumkin.

Uslubiy ko'rsatma Samarqand VXTXQTMOI Ilmiy metodik kengashining 2020-yil 29-dekabrdagi 9-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Mustaqillik yillarida yurtimizda tarixni yozma manbalar asosida tadqiq etishga e'tibor kuchaydi, ajdodlarimiz tomonidan uzoq o'tmishda yaratilgan madaniy-ma'naviy merosni o'rganish va targ'ib qilish dolzarb masalalar qatoriga qo'yildi. Ilm-fan, madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning unutilgan nomlari qayta tiklandi. Mohir sarkarda, davlat arbobi, ilm-fan, madaniyat homiysi bo'lgan Amir Temur ana shunday tarixiy shaxslardan biridir. Hazrat sohibqiron markazlashgan davlatga asos soldi, uni har tomonlama mustahkamlab, rivojlantirib, shon-shuhratini butun jahonga yoydi, buyuk saltanatning hukmdori sifatida millatlar va halqlarni birlashtirdi. Uning hukmdorlik yillarida madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa va she'riyat yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Bir so'z bilan aytganda, temuriylar davri renesansiga asos solindi. O'zbekiston birinchi Prezidenti I.A. Karimov temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi marosimida shunday degan edi: «Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak!» (Karimov I.A. Amir Temur tarixi haqida so'z. – B. 27.). Birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday deyiladi “... buyuk bobolarimizning ma'naviy olami xususida fikr yuritilganda, Sohibqiron Amir Temur haqida alohida to'xtalishimiz tabiiydir. Chunki tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi.” Sohibqiron Amir Temur hazratlari – millatimizning suyangan tog'laridan biri, xalqimizning abadiy faxri va g'ururidir. Ul zot Turonzaminni mo'g'ullar istilosi asoratidan ozod etdi, mamlakat va xalq daxlsizligini, tinchligini va osoyishtaligini, obodlik va farovonlikda rivojlanishini to'liq va ishonchli kafolatlay oladigan markazlashgan qudratli davlatni vujudga keltirdi, uning amru irodasi ostida bu yerda hayot har taraflama gullab-yashnadi. Turonzamin Amir Temur davrida Buyuk Ipak yo'lining qaynoq, gavjum, fayzli-barakali go'shalardan biriga aylandi. Amir Temur va temuriylar davrida yashagan muarrixlar Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Mirxond, Ibn Arabshoh, Muiniddin Nataniy va boshqa qator mualliflarning aksariyati o'sha davrda yashaganliklari uchun bo'lib o'tgan voqeya va hodisalarni uning bevosita hamda bilvosita shohidlari sifatida jonli va ishonchli tarzda bayon qilingan.

Amir Temur va temuriylar davrida san'at va madaniyat

Amir Temur va temuriylar davrida yashagan muarrixlar Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Mirxond, Ibn Arabshoh, Muiniddin Nataniy va boshqa qator mualliflarning aksariyati o'sha davrda yashaganliklari uchun bo'lib o'tgan voqeya va hodisalarni uning bevosita hamda bilvosita shohidlari sifatida jonli va ishonchli tarzda bayon qilingan. XV – asrda yashagan taniqli arab tarixnavislari, jumladan: Ibn Xoldun, Ibn Duqmoq, As-Suyutiy, Al-Qalqashandiy, As-Sahoviy, Bahriddin al-Ayniy, Ibn-Iyos, Ibn Tag'riberdi, Ibn Hajar al-Asqaloniy, al-Maqriziy va boshqalar o'z tarixiy asarlarida Amir Temurga, ayniqsa uning shaxsiga, Iroq, Shomga qilgan harbiy yurishlari, diplomatik aloqalar haqida ko'pdan-ko'p qimmatli ma'lumotlarni keltirilgan. Temuriylar davri tomosha san'atlari, bayramlari to'g'risida ma'lumotlar va umumlashmalar ko'plab saqlanib qolgan. Shu ma'noda Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye", Xondamirning "Makorim ul-ahloq", Zaxiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Xasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" kabi asarlari qimmatlidir. Ayniqsa, an'anaviy teatr, raqs va sirk bo'yicha ma'lumotlar umumlashma fikrlar va mo'jaz tadqiqotlar Alisher Navoiyning butun ijodi bo'ylab sochilgan. Shuningdek, Abu Nasr Farobiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy va boshqalarning musiqa sa'natiga oid risolalarda raqs ritmi va usullari haqida ma'lumotlar, ilmiy mushohadalar uchraydi. Hozircha, birgina Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniyy yohud javonmardlik tariqati" risolasida o'yin va tomoshalarning ayrim toifalari xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'tmishda an'anaviy teatr, qo'g'irchoqbozlik, raqs, xalq sirki, qo'shiqchilikning barcha shakllari, turlari "Tomosha" degan birgina istiloh bilan ifodalangan. Asli arabcha bu so'z "Qarash, ko'zdan kechirish" degan ma'nolarni anglatadi. Ammo Markaziy Osiyo mintaqasida uning ma'no doirasi juda keng bo'lib, ko'pchilikka mo'ljallangan hamda ko'ruvchi va tinglovchini quvontiradigan yoki qayg'urtiradigan, ba'zan hatto jumbushga soladigan ijrolar, maydon ma'rakalari, marosimlar bilan bog'liq namoyishlar va o'yinlar – barchasi "Tomosha" deb yuritilgan. Turkiychada "O'yin" atamasi ham ishlatilgan. Biroq uning qo'llash doirasi haddan tashqari juda keng bo'lib, ermak mashg'ulotlar, badantarbiya va sportga aloqador

sohalarni ham o'z ichiga olgan. Rui Gonsales de Klavixo boshliq guruhning Amir Temur huzuriga elchilik sayohati juda uzoq, xavf-xatar va mashaqqatlar bilan to'la safar bo'ldi. Shuni ham aytish kerakki, o'shanda Klavixo bilan birga Bobil (Misr) va Turkiya sultonining elchilari ham Samarqandga kelgandilar. Klavixoning elchilik vaqtlarida, ya'ni 1403-1406 yillar mobaynida Amir Temur ko'l ostidagi mamlakat va shaharlarning umumiy ahvoli, aholining kun kechirishi, Temur va yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar: qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari, do'konlar, ustaxonalar; temuriylar davlatining Xitoy, Hindiston, Oltin O'rda, Mo'g'iliston va boshqa mamlakatlarda bulgan savdo – sotiq va madaniy aloqalari; Amir Temur saroyida amalda bo'lgan tartib – qoidalar va nihoyat Amir Temurning xotinlari hamda ularning mamlakat ijtimoiy – siyosiy hayotida tutgan o'rni haqida e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan. Shu asnoda, san'at va madaniyat jabhalari ham rivojlanib bordi. Samarqand saltanatini o'z ko'zi bilan ko'rgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning yozishicha, Amir Temur “Qaysi bir mamlakatni zabt etgan va bo'ysuntirgan bo'lsa, ularning hammasidan odamlar, Samarqand va uning atrofidagi yerlarga joylashtirdi. Shoh har xil hunarmandlarni yig'ishga, ayniqsa, ko'p harakat qildi”. Ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy va boshqa olimlar ham shuni qayd etishadi. Misr, Shom, Ro'm, Ozarboyjon, Eron, Xorazm, Hindiston va ko'plab boshqa yurtlardan minglab hunarmandlar ko'chirib keltirilgan va hammasi ish bilan ta'minlangan. “Shoh, – deb yozadi Klavixo, – turli tomondan Samarqandga keltirilgan har xil toifadagi erkak va ayollarning hammasi, aytishlaricha, bir yuz ellik mingdan oshiq bo'lgan. Bular orasida turk, arab va boshqa elatlar, arman xristianlari, yunon katoliklari, nasroniylar, yakobitlar va yuzi bilan o'tga topinuvchi o'ziga xos mas'habga ega bo'lgan kishilar ham bor edi” (Klavixoning “Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” asaridan). Olib kelingan xaloyiq hayratlanarli darajada ko'p ediki, shaharga, ko'cha va maydonlarga, qishloqlarga, hatto shahar tashqarisidagi daraxtlar ostiga, g'orlarga ham odam sig'may ketgan edi. Amir Temur ularni bir – biridan ajratmasdan, qavmi va oilasi bilan birga jamoa – jamoa joylashtirgan, zarur shart – sharoit yaratib bergan, chunki yangi joyda o'z hunarlarini yo'lga qo'yishlari, mahorat va bilimlarini namoyon qilishlari uchun ular yotsiramasligi, mahkam o'rnashib

olishlari kerak edi. Samarqand atrofida Damashq, Misr, Bog'dod, Sultoniya, Sheroz nomli qishloqlarning paydo bo'lishini shu bilan izohlash mumkin. Bunday qishloqlar Shahrisabz, Qarshi, Buxoro atroflarida ham yuzaga kelgan. XIV asr oxirlaridayoq qurilishda birga ishlagan mahalliy va kelgindi me'morlar, ustalar o'rtasida o'zaro ta'sir va o'ziga xos ijodiy amaliy birdamlik yuzaga kelgan. Musiqa, raqs, tomosha san'atlarida bunday birdamlik va uyg'unlik birmuncha kechroq paydo bo'lgan, deb o'ylaymiz. XV asr boshlaridayoq umumiy badiiy maktablar shakllangan. Natijada nainki me'morchilik, naqqoshlik, o'ymakorlik va boshqa qator hunarlarda, balki musavvirchilik, musiqa, raqs, tomosha san'atlarida ham keskin yuksalishlar yuz berdi. Buni aksar olimlar uyg'onish davri, temuriylar renessansi deb ataydilar. Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" muqaddimasida Chingizxon bilan Amir Temur o'rtasidagi farqqa to'xtalib shunday yozadi: "Chingizxon qaysi shahar va viloyatnikim bosib olgan bo'lsa, na ul joydan asar qoldi-yu, na ulusidan xabar.... Hazrat sohibqironning baxtiyor zamonida fath etilgan joylarda esa, nizochilar va dushmanlarning ixtiyoridan butunlay chiqdi va ahvoli oldingidan ham ancha yaxshiroq va obodroq. Xalqi esa tinch va hursand bo'ldi..." Xo'sh, Amir Temur hayotida san'at, jumladan o'yin va tomoshalar, yanada kengroq olganda, marosim va bayramlarning o'rni qanday bo'lgan? Avvalo shu savolga javob beraylik.

Amir Temur bolaligi ko'pgina manbalarda afsonaviy yo'sinda keltirilgan. Mening nazarimda, Temur otasi – barlos nasabining sardorlaridan bo'lmish Tarag'ay Bahodirning panohida o'sha zamonlarda aslzodalarga xos aqliy va jismoniy tarbiyaning barcha turlaridan bahra olgan, ham aqlan, ham jismonan chiniqib borgan. Tili chiqib, aqlini tanigandan boshlab to o'n ikki yoshga to'lguniga qadar maktabda o'qish, savodxon bo'lish bilan birga ertak, so'ng tarixiy qissa va rivoyatlar tinglashni xush ko'rgan, tengqurlari bilan har xil harakatli o'yinlar o'ynagan. O'yinlari murakkablashib borgan. Ot ustida olishuv, poyga, yakkama – yakka kurash, "Urish – urish" o'yinlari shular jumlasidandir. "Ko'chada men bolalar bilan o'ynardim, – deb yozadi Sohibqiron o'zining "Tarjimai holi"da.- Bolalar bilan urush-urush o'ynab, o'zimni amir etib tayinlardim-da, o'yinni boshqarardim va bolalarning bir guruhini ikkinchi guruhi bilan urishtirishni mashq qilardim". Sharafiddin Ali Yazdiy ham buni quyidagi masnaviyalarda tasdiqlaydi:

Urush bo'lsa-da ishi uning faqat,
Lekin niyati edi toj ila taxt.
Buyurmoqlikka edi u tetik ruh,
Yonida bolalar bir necha guruh.
Bir bola sipohiga edi amir,
Boshqasi tayinlangan edi vazir.
Cho'p va qamishdan bir odam yasardi,
O'zi har tomonga qarab chopardi.
Farazda u bajarmadi farmonni
Deb, boshda so'roqqa tutardi uni.
Kichiklar uchun shul erur, de jazo,
Kattalar so'zidan chiqmasin aslo.
Jiddiyga o'xshardi o'yini uning,
O'yinda band baxtiyorligi uning.

Mullo Salohiddin Toshkandiy ning "Temurnoma" kitobida ham "Urush-urush" o'yini qayd etiladi, shu bilan birga Amir Temurning bolaligidan jismonan kuchli bo'lib o'sgani, mardligi misollar bilan yoritiladi. Sohibqiron bahslashib, qassobning sixlik qanorasini (kundasini) bir barmog'i-la otib yuborgan, bir qo'li bilan yuk to'la arobani ko'tarib tashlagan, ajdarning boshini tishi bilan tishlab uzib yuborgan, qirq kishi tortadigan qovg'ani (meshni) quduqdan qirq martta yolg'iz o'zi tortib chiqargan. Uning tarbiyasiga hissa qo'shgan Amir Choku, keyinchalik unga vazir etib tayinlangan Mirza Sayfiddin, qabiladoshlar, tengdoshlar Amir Temurning bunday g'ayri-tabiiy kuch namoyishiga guvoh bo'lib, tomosha qilib turganlar.

Amir Temurning tarjimai hol shaklida yozilgan "Zafar yo'li"da keltirishicha, "O'n ikki yoshga to'lganimda, – deb yozadi Sohibqiron, – bolalarcha o'yinlardan orlanadigan bo'ldim", Amir Temur endi ot minish, chavandozlik mashqlariga, ov qilishga mehr qo'ya boshlaydi. "O'n besh yoshga to'lganimda ot minib ovchilik qilishni juda sevib qoldim va bu ishda mahoratim kamolga yetdi" – deb ta'kidlaydi u. Ammo shunda ham "Urish-urish" o'ynidan voz kechmagan. Faqat endi o'yin ilgariday cho'p ot bilan emas, haqiqiy otlar bilan jiddiy yo'sinda olib borilgan. Bu to'g'risida "Tarjimai hol"da shunday ma'lumot bor: "Yigirma yoshga to'lganimda tengdoshlarim bilan tez-tez urush mashqlarini o'tkazib turdim: bunda ularni ikki guruhga bo'lib, birini ikkinchisi bilan jang qilishini mashq qildim". Shu tarzda oddiy ermak o'yin haqiqiy jangovor mashqqa aylandi. Amir Temur va temuriylar

davlatida turli bayramlar, sayillar, tomoshalar o'tkazilib kelinganligi to'g'risida ko'pgina ilmiy ma'lumotlar bor. Ma'rakalarda har toifa ijrochilar alohida – alohida tarabxona va xosxona san'atkorlarning aralash guruhlari o'z mahoratlarini namoyish etishgan bo'lsa, teatrlashgan sayillar va namoyishlarda minglab har xil ijrochilar qatnashgan va o'zaro bellashgan.

Amir Temur Movarounnahrda ilgaritdan mavjud an'analarni davom ettirgan holda, o'zining har bir g'alabasini bayram, to'y bilan nishonlagan. Har bir aziz mehmonni ziyofat va bazm bilan siylagan. Oilaviy marosimlarni ham sozanda, xonanda va raqqosu-raqqossalarsiz, umuman olganda o'yinchilarning katta-katta guruhlarini jalb etgan xolda o'tkazishni yoqtirgan. Uning davrida halq bayramlari juda ham keng ko'lamda nishonlanganligini tarixiy manbalardan topishimiz mumkin.

Xos bazmlarda maqom kuylari chalingan. Bu kuylarga raqqos va raqqosalar xironi etgan, masxara va muqallidlar kuldirgan, bayramlarda katta maydon va ma'rakalarga yarasha tomoshalar ko'rsatilgan. Maydon tomoshalari orasida ot bilan bajariladigan poyga, uloq chopish (Ko'pkari), otdan ag'darish, chavgon, qaboq o'yin kabilar, haqqoniy kuch sinovi hisoblanmish kurash (Gushtirlik), qilich, nayza, gurzi va boshqa jangovar qurol va aslahalar bilan o'tadigan bellashuvlar, shuningdek, qo'chqor, xo'roz urishtirish kabi qadimiy o'yin va musobaqalar yetakchilik qilgan.

Tomoshabinlar o'ta faol bo'lishgan: har guruh, jamoa yoki urug' maydonda kuch yoki bo'lmasa mohirligini, mahoratligini sinayotgan vakilini (yoki o'rgatilgan oti, xo'roz yohud qo'chqorini) quvvatlab, tarafini olib, ruhlantirib turgan. Butun o'yin yoki tomosha jarayonini u bilan birga kechirgan, yutug'idan quvongan, mag'lubiyatidan achingan. Ishtirokchi va tomoshabinlar juda tanti bo'lishgan, g'oliblarni tan olib, tetik ruh, yangi yig'inlarga umid bag'ishlashgan va shu tariqa maydonni tark etishgan. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida Amir Temur saltanatidagi ko'plab to'ylar haqida ma'lumotlar beriladi. Bu to'ylar asosan 3 xil ko'rinishda ko'rishimiz mumkin.

1. Amir Temur hayoti bilan bog'liq to'ylar.
 2. Amir Temur farzandlari va nabiralari hayoti bilan bog'liq marosimlar.
 3. Davlat va din ishlari bilan bog'liq bayramlar.
- Amir Temurning to'liq ismi: Amir Temur Ko'ragoniy ibn Amir

Tarag'ay ibn Amir Barluk bo'lgan. Amir Temurning onasi Takinaxotun buxorolik mashhur faqih Ubaydulla ibn Ma'sudning avlodi. Otasi Amir Tarag'ay barlos urug'inig oqsoqollaridan bo'lgan. Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar va jangu jadallarni amalga oshirdi. Ko'p mamlakatlarni zabt etdi. Oqibatda Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Ili daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi.

TEMURIYLAR DAVRIDA AMALIY SAN'AT

O'rta Osiyo zaminida temuriylar davri ilm-fan, adabiyot, san'at sohlarida kamolot bosqichiga ko'tarildi. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda namoyon bo'ldi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan «Qudratimizni ko'rmoq istasang- binolarimizga boq!» degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Temur davrida Movarounnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar keng ko'lam kasb etadi. Ilk o'rta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo'lgan «Shahriston»dan ko'lam va mazmuni bilan farq qiluvchi «hisor» qurilishini Samarqand va Shahrisabzda kuzatish mumkin. Temur davrida Kesh shahar qurilishi yakunlandi. «Hisor»ning janubi-g'arbida hukumat saroyi Oqsaroy va atrofida rabotlar, bog'-rog'lar qurildi. Temur saltanat poytaxti Samarqandni bezatishga alohida e'tibor berdi. Shaharda «Hisor», qal'a, ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. Samarqandga kiraverishdagi Ko'hak tepaligida Cho'pon ota maqbarasi Ulug'bek davrida qurilgan bo'lib, bu inshootda mutanosiblik, umumiy shaklning nafisligi, bezaklarda ulug'vorlik uyg'unlashib ketgan. Temur davrida Samarqand Afrosiyobdan janubda mo'g'ullar davridagi ichki va tashqi shahar o'rnida qurila boshladi hamda bu maydon qal'a devori va xandok bilan o'ralib (1371 y) Hisor deb ataldi. Hisor 500 gektar bo'lib devor bilan o'ralgan. Shaharga oltita darvozadan kirilgan. Shahar mahalalardan iborat bo'lib, guzarlarga birlashgan. Shaharda me'moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutuqi bo'ldi. Me'morchilik taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarildi, inshootlar ko'lami bilan birga uning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muhandislar, me'morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo'ydi. Temur davrida gumbazlar tuzilishida qirralar oralig'i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg'alarga tayangan tashqi gumbazni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi. Ulug'bek davrida gumbaz osti tuzilmalarning yangi xillari ishlab chiqildi. Aniq fanlardagi yutuqlar me'morchilik yodgorliklarida aniq ko'rinadi (Shohizinda, Ahmad Yassaviy, Go'ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Ulug'bek madrasasi). Ularning old tomoni va ichki qiyofasi rejalarini tuzishda me'moriy shakllarning umumiy uyg'unligini belgilovchi geometrik tuzilmalarning aniq o'zaro nisbati bor. Bezak va sayqal ishlari ham

bino qurilishi jarayonida baravar amalga oshirilgan. Temuriylar davrigacha va undan keyin ham Movarounnahr va Xuroson me'morchiligida bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan. Temur va Ulug'bek davri me'morchiligida bezakda ko'p ranglilik va naqshlar xilma-xilligi kuzatiladi. Epigrafik bitiklarni binoning maxsus joylariga, xattotlik san'atini mukammal egallagan ustalar olti xil yozuvda ishlagan. Koshin qatamlarida tasvir mavzui kam uchraydi. Oqsaroy peshtoqlarida Sher bilan Quyoshning juft tasviri uchraydiki, bu ramziy ma'noga ega. Temur va Ulug'bek davrida bino ichining bezagi ham xilma-xil bo'lgan. Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatilgan. Temur davrida qurilgan binolarda ko'k va zarhal ranglar ustun bo'lib, dabdabali naqshlar ishlangan, Ulug'bek davrida Xitoy chinnisiga o'xshash oq fondagi ko'k naqshlar ko'p uchraydi. Bu davrda diniy inshootlar, hukmdor saroylari, aslzodalarning qarorgohlari ko'plab qurildi. Temur Hindiston yurishidan so'ng (1399 y). Samarqandda jome masjidi qurdiradi. Uning ro'parasida Bibixonim madrasasi va maqbara bunyod ettirdi. Ulug'bek Buxoro Jome masjidini kengaytirib, qayta qurish ishlarini boshlagan, biroq u XVI asrda qurib bitkazdi. Temur davrida Saroy Mulk xonim Go'ri Amir majmuasida madrasalar qurilgan. Ulug'bek Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda madrasalar bunyod etirdi. XV asrda madrasa me'morchiligi o'zining uzil-kesil qiyofasiga ega bo'ldi. Madrasa qurilishi yagona tizim bo'yicha rejalashtirilsa ham, asosiy shakllari, ularning o'zaro nisbatlari va bezaklariga ko'ra har biri o'z qiyofasiga ega edi. Temuriylarning ikki san'at durdonasi-Samarqanddagi Ulug'bek va Hirotdagi Gavharshodbegim madrasalari yagona tizim rejasi bo'yicha qurilganiga qaramay, bir-biridan farq qiladi. Temuriylar davridan qolgan maqbara, din arboblari va ruhoniylar qabrini o'z ichiga oluvchi to'siq-xazira, avliyolar qadamjolari, dahma alohida guruhni tashkil qiladi. Samarqandda Temur davrida shayx Burxoniddin Sag'orjiy xilxonasi – Ruhobod maqbarasi va Temuriylar xilxonasi -Go'ri Amir. Shuningdek, Shohizinda majmuasida peshtoqli maqbaralar guruhi quriladi. Ulug'bek davrida ijodiy izlanishlar samarasi dahmalarning me'moriy ko'rinishiga ham ta'sir o'tkazadi. Shohizinda majmuasida sakkiz qirrali maqbara va hozirgacha Qozizoda Rumiyy maqbarasi deb kelinayotgan («Sultonning onasi» uchun qurilgan, asli noma'lum) maqbara quriladi. Ulug'bek Buxoro, G'ijduvon, Shahrisabz, Termiz, Toshkentda ham noyob obidalar qurdirgan. Ammo qurilish miqyosi va

bezaklar bo'yicha Samarqanddagi obidalar ustunlik qiladi. Toshkentda Zangi ota maqbarasi va Shayxontohur majmuasi, bo'lib, Qaldirg'ochbiy maqbarasi XV asrning birinchi yarmiga mansub. Temur davrida ulkan inshoot-Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasi barpo qilindi. Bu maqbara musulmon Sharqining me'moriy yodgorliklari orasida eng noyobidir. Qadamjolar me'morchiligi ham o'ziga xos tuzilishga ega. Temur Buxoroda Chashmai Ayub (1380y.) yodgorligini qurdiradi. Shuningdek, Temur Shahrisabzda ziyorat va dafn marosimlari uchun «hazira»-»Dor us-Siyozat» (1389-1400) xilxonasini qurdirgan. O'g'li Jahongir vafot etgach Shahrisabzda maqbara (hazrati Imom) qurdirgan. Unda Xorazm me'morchiligi an'analarini ko'rish mumkin. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi me'moriy san'atning noyob yodgorligidir. Rasadxona diametri 48 metrli aylana shaklda bo'lib, uch qavatlidir. Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo'lgan. Birinchisi-ma'muriy-siyosiy maqsadda bo'lib, qal'a yoki shahar ichida qurilgan. Ikkinchisi-shahar tashqarisidagi bog'larda qurilgan qarorgohlarda qabul marosimlari, majlislar o'tkazilgan va xordiq chiqarilgan. Shahrisabzdagi Oqsaroy gumbazining diametri 22 metr bo'lib, toq va ravoqlari beqiyos bo'lgan. Temur va Ulug'bekning asosiy qarorgohi Samarqanddagi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy deyiladi. Shuningdek, shahar tashqarisida Temur o'n ikkita bog' va saroylar bunyod ettirgan. Ulug'bek davrida Samarqandning Registon maydoni shakllandi, «Masjidi Muqatta'», 210 gumbazli Ko'kaldosh jom'e masjidi qad ko'tardi. Shohizindada ayrim maqbaralar, Shahrisabzda Ko'kgumbaz masjidi, «Chilustun» va «Chinnixona» saroylari uning davrida qurildi. XV asrning ikkinchi yarmida Samarqandda Xo'ja Ahror madrasasi, Ishratxona, Oqsaroy maqbaralari bunyod qilindi.

Amir Temur va Ulug'bek davrida tasviriy san'at turli yo'nalish bo'yicha yuksaldi. Islomda jonli narsalar tasviriga sig'inmaslik tasviriy san'atda naqshning ravnaqiga sabab bo'ldi. O'rta Osiyoda arablar bosqini tufayli to'xtab qolgan devoriy suratlar va umuman tasviriy san'at Temur davrida yangi shakl va mazmunda tiklandi. Xattotlik-qo'lyozma adabiyotning ajralmas bir qismi hisoblangan. Miniatyura-tasviriy san'atga ham avvalo naqsh sifatida qaralgan. Temuriylar davrida tiklangan devoriy suratlar esa XVI asrda yana to'xtab qoldi. Samarqanddagi Temuriylarning saroy-qarorgohlarida qabul marosimlari, jang voqealari, ov manzaralari, xalq bayramlari tasviri

tushirilgan devoriy suratlar bo'lgan. Temur, o'g'illari, nabiralari, ayollari va kanizaklari tasviri bu devoriy suratlarda aks ettirilgan Ulug'bek devorida ham devoriy suratlar mavzu jihatdan rang-barang bo'lib, uslubiy jihatdan miniatyura janriga yaqin bo'lgan. Bu davrda qayta ko'chirilgan Abdurahmon as-So'fiyning (X asr) falaqiyotga oid asariga ishlangan bir suratda Andromeda yulduzlar turkumi Chochlik ayol qiyofasida tasvirlanadi. Samarqand rasadxonasida esa to'qqiz falak ko'rinishi, yetti gardish, yetti yulduz-yoritqich daraja, vaqt bo'limlari, Yer yuzining yetti iqlimi tasvirlangan.

Temur davrida qurilgan Shirinbeka opa, Bibixonim, Tuman opa obidalarida naqqoshlik va xattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka opa maqbarasida tasvir ko'p ranglarda, qolgan ichki bino devorlarida oq va moviy rangdagi tabiat manzaralari tasvirlanadi. Xattotlik san'ati taraqqiyotiga XV asrda an'anaviy nasxi, kufiy, devoriy xatlari bilan birga peshtoqlarni bezovchi suls va tezkor-nasta'liq noyob qo'lyozma asarlar ko'chiriladigan maxsus ustaxonalar kitobotchilikning ravnaqiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Amir Temur davrida Samarqandda miniatyura rassomchilik maktabi tashkil topdi. hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan ko'chirma- homaki miniatyura nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo'lib, ularda alohida shaxslar, daraxtlar, gullar, kichik kompozitsiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg'unligi, harakatlar aniqligi, qiyofalarning o'z o'rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan. Amir Temur qiyofasi tiriklik vaqtida aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl holatiga yaqin suratlar «Zafarnoma»ning dastlabki ko'chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorqinroq qiyofasi Hirotda (1467 y.) ko'chirilgan «Zafarnoma»da keltiriladi. Dastlab Mirak Naqqosh boshlagan va Behzod yakunlagan ushbu miniatyurada boy kompozitsiya va serjilo bo'yoqlarning uyg'unligi ajralib turadi.

Miniatyura rassomchiligining taraqqiyoti adabiyotning rivoji bilan bog'liq bo'lgan. Musavvirlar Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, so'ngra Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlagan. XIV asrda «Jome' ut-tavorix», «Tarixi Rashidiy» kabi tarixiy asarlarga ham miniatyuralar ishlagan. Bu an'ana Temuriylar davrida ham davom ettirilib, «Zafarnoma» va «Temurnoma» asarlarida jang lavhalarini tasvirlanadi. Ayrim hollarda diniy asarlarga ham Makka va Madina tasviri

tushirilgan. Badiiy asarlarning ba'zilarida Muhammad payg'ambarning (yuzi niqobda) odamlar orasida turgan holati va me'rojga chiqishlariga oid lavhalar uchraydi. XV asr miniatyuralarining aksariyatida sharq she'riyatining qahramonlari-Layli va Majnun, Xusrav va Shirin, Rostam, jang lavhalari tasvirlanadi. Umuman miniatyura san'ati Iroq, Eron, Xuroson, Movarounnahr va Hindistongacha hududda bir davrga xos badiiy-estetik hodisa edi. Bu hodisa Temuriylar bilan bog'liq bo'lib, temuriylarning Bag'dod, Sheroz, Tabriz, Hirot, Samarqand, Dehli kabi markazlarida bir necha miniatyura maktablari vujudga keldi. Samarqand miniatyura maktabi XIV-XV asrning birinchi yarmida qaror topgan bo'lib, turli turkumda yaratilgan bu miniatyuralarda Sharqiy Turkiston san'atiga xos bo'lgan Turkiy obrazlarda Xitoy rassomchiligi ta'siri sezilib turadi. Samarqanddagi saroy musavvirlari Abul Xayya va uning shogirdlari Shayx Mahmud Taliliy, Pir Ahmad Bog'i Shamoliy, Muhammad bin Mahmudshoh, Darvesh Mansurlar ishlagan rasmlar nozik, bo'yoqlar ustalik bilan qo'llangan. ularning miniatyuralari temuriylar davriga xos ov-shikor mavzuida yaratilgan. 1420 yildan keyin Boysunqur Mirzo Hirotida xattotlik va naqqoshlik ustaxonasi tashkil qilgach bu rassomlarning ayrimlari hirotga ko'chib o'tadi. Abul hayya tarixiy asarlariga ishlagan miniatyuralarda Amir Temur va temuriylarning qiyofalari aks etsa, badiiy asarlarga ishlagan rasmlarida ham ular turli holatlarda tasvirlanadi. Xalil Sulton davrida ishlangan ayrim miniatyuralar grafik tarzda, badiiy jihatdan o'ziga xos «siyohi qalam» uslubida ishlangan. Temur hayotlik davrida uning saroy devorlarida shoh va shahzodalar bor bo'yida tasvirlanib, haqiqiy portret janrini Kamoliddin Behzod shakllantirdi. Umuman, Temur va temuriylarning qiyofalari tasvirlangan ko'plab miniatyuralar dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Ularning aksariyatida rasm chizilgan davr yoki rassom, joy, maktab ko'rsatilmagan. Biroq, bu miniatyuralarda nur sohib turgan quyoshsimon sherning boshi tasvirlangan tug'-Temurning gerbi-uning saroyi peshtoqida, Xalil Sulton va Ulug'bek zarb qilgan tangalarda uchraydi. Shuningdek, tabiat tasvirida to'q yashil va jigarrang ko'pligi, kiyimlar turkiy millatga xos bo'lganligidan bu miniatyuralar Samarqand miniatyurachilik maktabiga mansub deyish mumkin. Chunki, Hirot va Sheroz miniatyuralari qahramonlarining kiyimlari boshqacharoqdir.

Samarqand maktabi miniatyurachilari vakillari kompozitsiya

yaratish va manzara tasvirida mahoratlidirlar. Ulug'bek davrida mashhur bo'lgan xattot va musavvir asli Obivardlik Sulton Ali Boverdiy miniatyuralari chiziqlarning keskinligi, ranglarning yorqinligi bilan o'ziga xosdir. Samarqand maktabiga xos bo'lgan 18 ta miniatyura Nizomiyning»hamsa» asariga va 49 ta miniatyura «Shohnoma» asariga ishlangan bo'lib hozir Turkiya kutubxonasida saqlanadi. Ulug'bek davrida as-So'fiyning «Siljimas yulduzlar ro'yhati» asariga ishlangan miniatyuralarda xaritalar qizil va qora doiralar bilan katta va kichik yulduzlarning joylashishi ko'rsatilgan bo'lib, grafik tarzda rang bermay, qora siyohda chizilgan. Yulduz turkumi oddiy xalq vakili qiyofasida tasvir etiladi. Sharq miniatyurachiligida oddiy xalq hayoti mavzui temuriylar davrida paydo bo'lgan. Masalan, «Samarqand masjidini qurish», «Iskandar devorini bunyod etish», «Ko'chmanchilar turmushi», «Jamshidning oddiy xalqqa hunar o'rgatishi mavzuidagi miniatyuralar bunga misoldir.

Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi badiiy hunarmandchilikning turli shakllarida namoyon bo'ldi. Badiiy hunarmandchilik asosan me'morchilik bilan bog'liq bo'lmay, koshinkorlik kulolchiligi, yog'och va tosh o'ymakorligi bilan ham bog'liq edi. Qabr toshlariga qisman o'simliksimon, asosan geometrik nazmlarda xattotlik namunalari bilan so'zlar bitilgan. Bu yozuvlar chuqur, qusha o'yiqlarida bitilgan. Qabrtoshlar sag'ana yoki suna shaklida bo'lib, bo'z rangli marmardan, ayrim hollarda o'ta noyob toshlardan tantana idishlar ishlangan. Yog'och o'ymakorligida Go'ri Amir, Shohi Zinda, Yassaviy maqbaralari, eshiklari, shuningdek Xv asrga oid uy ustunlari naqshlar bilan ishlangan. Temur va Ulug'bek davrlarida metall o'ymakorligi taraqqiy etadi. Buyum va idishlar oltinsimon bronza, latun, qizil misdan ishlangan. Naqshlar o'yib, bo'rtma usulda, qimmatbaho toshlar qadalib tayyorlangan. Yassaviy maqbarasi ulkan-shamdonlar, ayniqsa ikki tonnalik qozon bronza qo'yish san'atining eng yuksak namunasidir.

Amaliy san'atning kulolchilik turi uchun yashil, zangori tusdagi yorqin sir ustiga sodda o'simliknoma naqshlarni qora bo'yoqlar bilan tushurishga yoki uyurma gullar ishlanishi, bu davrda paydo bo'lgan oppoq idishlarga sir ustidan kobalt yordamida naqsh berilishi yangilik edi. Sopol buyumlardagi naqshlar mo'yqalamda chizilgan. Oldingi asrlarda sopol buyumlariga chiziq naqshlar chizishgan, temuriylar davriga mansub chikkisimon sopol buyumlarda kulol-rassom turli

uslubda och havorangdan to lojuvardga qadar ranglarni qo'llaydi. Temur va temuriylar davrining amaliy san'at turlaridan to'qimachilik, gilamdo'zlik, kashtachilik yuksak san'at darajasiga ko'tarildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: «O'zbekiston».
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., O'zbekiston 1994.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: 2008.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: «O'zbekiston». 2010.
5. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-barpo etish pirovard maqsadimiz. Toshkent. 2010.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T. «O'zbekiston», 2012 yil 250 – bet.
7. Abdullayev A. Norqulov M. Miniatyura tarixidan lavhalar. T. 1970.
8. История зарубежноко искусства. М. 2002.
9. San'at. O'zbekiston Badiiy akademiya jurnali. 2010. №4.
10. Muqaddima Ashrafiy. Temur va Ulug'bek davri Samarqand miniatyurasi. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1996.
11. Norqulov N., I.Nizomiddin. Miniatyura tarixidan lavhalar. Toshkent, 1970.
12. Abdullayev N. «San'at tarixi». Toshkent. «O'qituvchi» 1987.
13. Temur tuzuklari. 1996, 124 bet
19. Usmonov A. Kamolliddin Behzod va uning noqqoshlik maktabi. T.: 1977.
38. www.ZiyoNet.uz
39. www.Google.ru,
40. www.lib.uz
41. www.ref.uz

**SUVONOVA KAMOLA RAYIMQUL QIZI
TEMURIYLAR DAVRIDA AMALIY SAN'AT**

Texnik muharrir *Abdullayev F.*

Terishga berildi: 10.01.2021 y.
Bosishga ruxsat berildi: 13.01.2021 y
Ofset bosma qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}.
«Cambria» garniturasini. Ofset bosma usuli.
1,25 bosma taboq Adadi: 50 nusxa. Buyurtma №75/20

Samarqand viloyati Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Obidinov ko'chasi 7-uy.

